

YOSHLAR VA TA'IM- KELAJAK POYDEVORI

Guliston Davlat Pedagogika Instituti
“Tillarni o’qitish fakulteti”
16-25-guruh talabasi Risqulova Charos

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar va ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyati kengaytirilgan faktlar asosida yoritiladi. Inson kapitali nazariyasi, innovatsion iqtisodiyot, raqamli transformatsiya hamda davlat siyosati misolida ta’limning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: yoshlar, ta’lim, inson kapitali, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, startup, grant, stipendiya, taraqqiyot, investitsiya.

Аннотация: В статье рассматривается стратегическая роль молодежи и образования в развитии общества с расширенными фактами. Анализируется влияние образования на экономический рост и социальное развитие через теорию человеческого капитала, инновационную экономику и государственную политику.

Ключевые слова: молодежь, образование, человеческий капитал, инновации, цифровая экономика, стартап, гранты, стипендии, развитие, инвестиции.

Annotation: This article examines the strategic importance of youth and education in social development with expanded facts. It analyzes the impact of education on economic growth and social progress through human capital theory, innovation economy, digital transformation, and public policy.

Keywords: youth, education, human capital, innovation, digital economy, startup, grants, scholarships, development, investment.

Kirish

Har bir jamiyatning eng muhim boyligi- bu uning yosh avlodidir. Chunki aynan yoshlar millatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyotining bosh omili hisoblanadi. Shuningdek, yosh avlodning bilimli salohiyatli va ma’naviy yetuk bo’lib yetishishi mamlakat istiqbolini belgilaydi. Shuning uchun, har qanday jamiyat o’z kelajagini mustahkamlashni avvalo ta’lim tizimini rivojlantirishdan boshlaydi. Ta’lim esa nafaqat o’rganish jarayoni, balki jamiyatning ruhiy, madaniy va ma’naviy o’sishiga yo’l ochuvchi eng muhim omildir. Bugungi dunyoda bilim- eng qudratli qurol. U insonni yuksaltiradi, millatni tarqiy ettiradi, davlatni mustahkamlaydi. Yoshlar uchun ta’lim- bu faqat dars va kitob emas, balki hayotga yo’l, orzular sari ko’prikdir.

Asosiy qism

Bugungi kunda yoshlar jamiyatning eng faol va istiqbolli qatlamidir. Ularning sifatli ta'lim olishi davlatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. Quyida bu fikrni tasdiqlovchi 10 ta aniq fakt keltiriladi:

✓ 1-fakt

UNESCO ma'lumotiga ko'ra, har bir qo'shimcha o'qish yili insonning kelajak daromadini o'rtacha 8–10% ga oshiradi.

✓ 2-fakt

Jahon Banki hisobotlariga ko'ra, inson kapitali ko'plab rivojlangan davlatlarda milliy boylikning 60–70% qismini tashkil qiladi.

✓ 3-fakt

Janubiy Koreya ilmiy tadqiqot va innovatsiyaga YAIMning 4% dan ortig'ini yo'naltiradi. Natijada mamlakat yuqori texnologiyalar eksportida yetakchilardan biri hisoblanadi.

✓ 4-fakt

Germaniya dual ta'lim tizimi orqali yoshlarni o'qish davridayoq ishlab chiqarish amaliyotiga jalb qiladi, bu esa ishsizlik darajasini kamaytiradi.

✓ 5-fakt

Dunyodagi eng yirik innovatsion hudud – Silicon Valley startup ekotizimi orqali minglab yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlaydi.

✓ 6-fakt

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sababli IT va sun'iy intellekt sohasida yosh mutaxassislariga talab keskin oshmoqda.

✓ 7-fakt

O'zbekistonda Yoshlar ishlari agentligi yoshlarni grant, stipendiya va loyihalar orqali qo'llab-quvvatlaydi.

✓ 8-fakt

IT Park Uzbekistan rezidentlari uchun soliq imtiyozlari va investitsiya imkoniyatlari yaratilgan bo'lib, bu yosh startapchilar sonini oshirmoqda.

✓ 9-fakt

Ta'lim darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda jinoyatchilik darajasi past va ijtimoiy barqarorlik yuqori bo'ladi.

✓ 10-fakt

Ta'limga kiritilgan 1 dollar investitsiya uzoq muddatda bir necha barobar iqtisodiy foyda keltirishi ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan.

Bugungi yoshlar avvalgilardan ancha farq qiladi, misol uchun mustaqil fikrlashni, o'z fikrini ochiq ifoda etishni va yangi g'oyalar yaratishni xohlaydi. Albatta

bu-tabiiy hol. Zamonaviy ta'lim tizimi esa aynan shunday yoshlarni qo'llab quvvatlashi kerak. Darslar bir tomonlama bo'lmaydi, bunda muloqot, tahlil, bahs va ijod asosida kechsa, yoshlarning faolligi yana ortadi. Ta'lim insonni nafaqat o'qitadi, balki uni tarbiyalaydi. U dunyo qarashni kengaytiradi, tafakkurni oshiradi va ongini o'stiradi. Har bir yosh avlod ta'lim orqali o'z yo'lini topadi, hayotda o'z o'rniga ega bo'ladi.

Kelajak poydevori bo'lgan yoshlarning tafakkurini oshirib, sog'lom g'oyalari bilan to'ldirish-ukarni foydasiz bo'lgan ta'sirlardan himoya qilishning eng yaxshi yo'lidir. Shunday ekan, ta'lim tizimi har bir o'quvchining qalbiga milliy qadriyatlarni singdirishi zarur. Barkamol avlod tushunchasi faqat bilim bilan cheklanib qolmaydi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida dars berish bilan bir qatorda yoshlarning ruhiy, axloqiy, jismoniy va aqliy holatini tekshirib, ularni halollik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash muhimdir.

Hozirgi kunga kelib, yoshlarda ijodkorlik ruhi ancha ko'tarilgan chunki, ular turli sohalarda yangi g'oyalarni yaratishga harakat qilishadi. Jamiyatning har qanday o'zgarishlarga ijodiy va tanqidiy yondasha oladigan, mavjud muammolarni samarali va sifatli hal qila oladigan odamlarga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi va jamiyat tarqqiyoti sur'atlarining tezlashishi va natijada odamlarni jadal hayotga tayyorlash zarurati bilan bog'liq, o'zgaruvchan sharoitlar.

Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, ta'lim inson kapitalining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Nobel mukofoti sovrindori iqtisodchi Gary Becker inson kapitali nazariyasida ta'lim va malaka oshirishni iqtisodiy o'sishning eng muhim omillaridan biri sifatida ta'kidlagan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, bilim va ko'nikmalarga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatda yuqori daromad keltiradi.

UNESCO hisobotlarida ta'lim barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning asosiy vositasi sifatida ko'rsatiladi. Xususan, sifatli ta'lim kambag'allikni kamaytirish, gender tengligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limda o'qituvchi-bilim manbai emas, balki yo'l boshchi, hamfikr, hamkor sifatida namoyon bo'lmoqda. U o'quvchi tayyor emas, mustaqil izlanishga undaydi. Bu esa, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi ishonchni ta'minlab beradi. Har bir o'qituvchi zamon talabiga mos ravishda yangi metodlarni qo'llashi, raqamli vositalardan samarali foydalanishi zarur. Chunki bugungi o'quvchi information avlod vakilidir.

Axborot texnologiyalari ta'limni tubdan o'zgartirdi. Endi bilim olish uchun auditoriyaga kirish shart emas-internet orqali dunyoning istalgan universitetidan dars olish mumkin. Bu imkoniyat, bir tomondan o'quv jarayonini yengillashtirsa, ikki tarafdin esa raqobatni kengaytiradi. Ammo bu qulayliklar an'anaviy va insoniy qadriyat o'rnini bosmasligi kerak. Raqamli ta'limning markazida hamon inson, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ruhiy aloqa turadi.

Raqamli transformatsiya davrida yoshlarning IT va texnologik ko'nikmalarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, Silicon Valley kabi innovatsion markazlarda yoshlarning startap tashabbuslari iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini shakllantirmoqda. Yevropa tajribasida, xususan Germaniya da dual ta'lim tizimi yoshlarni nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Janubiy Koreya esa ilmiy tadqiqotlarga katta sarmoya yo'naltirish orqali innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirgan.

Innovatsion tafaakkur –bu yangicha qarash, mavjud muammoni noodatiy yo'l bilan hal qilish qobiliyati hisoblanadi.ta'lim jarayonida ilmiy tadqiqotlar start up loyihalar va ijodiy platformalar orqali yoshlarni yangilikka rag'batlantirish juda muhim rol o'ynaydi.Chunki innovatsiya-bu faqat texnologiya emas,balki tafakkur madaniyatidir.Bugungi yoshlar uchun bu ko'nikma hayotiy zaruratga aylangan.

Iqtidorli yoshlarni qollab-quvvatlash,ularni rag'bandlantirish , grantlar,stipendiyalar va tanlovlar orqali imkon yaratish – bu davlatning eng muhim sarmoyasidir.Har bir yosh o'ziga xos iqtidor egasi.Kimdir san'atgaa mehr qo'yadi,kimddir texnikaga,kimdir esa ijtimoiy sohalarga.Ta'lim tizimi ana shu iqtidorlarni ularni erta aniqlab,ularni rivojlantirish yo'nalishida individual yondashuvni ta'minlashi zarur.

O'zbekistonda yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Yoshlar ishlari agentligi va IT Park Uzbekistan faoliyat yuritmoqda. Grantlar, stipendiyalar va startap loyihalar yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim rol o'ynamoqda.

Shuningdek, ta'lim darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlik mustahkam bo'lishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Ta'lim yoshlarni tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. Bu esa demokratik jamiyat rivojining asosiy shartidir.

Xulosa: Yoshlar – davlatning eng katta boyligi. Ularning bilimli, innovatsion tafakkurga ega va vatanparvar bo'lib shakllanishi jamiyat taraqqiyotining kafolatidir. Ta'limga yo'naltirilgan har bir investitsiya – bu kelajak iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga qo'yilgan mustahkam poydevordir. Kelajakni bunyod etish uchun bugun bilimli,vatanparvar va erkin fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash zarur.Chunki kelajakni quruvchi kuch-aynan shu avloddir.Yoshlarning ta'lim olishi-bu nafaqat shaxsiy yutuq,balki jamiyat uchun eng kata sarmoyadir.Bilimli va madaniyatli yoshlar jamiyatda tinclik,taraqqiyot va yangilanish kafolatir. Shunday ekan, yoshlar va ta'limga yo'naltirilgan har bir investitsiya – bu kelajak poydevoriga qo'yilgan mustahkam g'ishtdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. Global Education Monitoring Report.
2. World Bank. Human Capital Project Reports.

3. Gary Becker. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis.
4. OECD. Education at a Glance Reports.
5. IT Park Uzbekistan rasmiy ma'lumotlari.
6. Yoshlar ishlari agentligi rasmiy hisobotlari.

